



INGLIZ ROMANTIZM ADABIYOTIDA SHARQQA YAQINLASHUV HODISASI

Mamarasulova Gulnoz Abdulqosimovna,
TIFT universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
gmamarasulova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XVIII-XIX asrlar Angliya adabiyoti tarixida ro‘y bergan orientalizm hodisasi va bu davrning boshlanish nuqtalari muhokama qilinadi. Unda ingliz romantizm davri namoyandalari Bayron, Tomas Mur va Sauti ijodiga aloqador o‘xshash va farqli jihatlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: “Ko‘l maktabi”, romantizm, orientalizm, romantistlar, Sharq qissalari, tarjima, adabiy janrlar.

Angliyada XVIII asrda “Ko‘l maktabi” shoirlari Sauti, Kolrij va Vordsvortlar tomonidan boshlangan harakat davomi sifatida, XIX asrda ham romantik ruhdagi sharqona asarlarda g‘ayritabiiy syujetlar, noodatiy hodisalar va bir-biriga o‘xshamagan qahramonlarni keng tasvirlash an‘anaga aylandi. Sharq ularning tasavvurida ajoyibotlar sodir bo‘ladigan o‘lka sifatida namoyon bo‘lardi. Romantistlar hashamatli saroylar, g‘aroyib manzaralar-u qahramonlar va qadim tarixni asosiy mavzu qilib olishdi. Ular ichida eng ko‘zga ko‘ringan yozuvchi Lord Bayron edi.

Bayron o‘zining mashhur “Kofir: Turk qissasi fragmenti” (The Giaour: A Fragment of a Turkish Tale, 1813) nomli sharqona poemasida islomiy tamoyillarning qadr-qimmatini masalasi ko‘tarib chiqadi. Ushbu asar muallifga ham tanqidiy, ham moliyaviy muvafaqqiyat keltiradi. Asardagi voqealar seriyasi uch nafar shaxs tilidan hikoya qilinadi. Poemadagi muhabbat, o‘lim va keyingi hayot tasvirlari orqali xristian va musulmon urf-odatlarini taqqoslash mumkin. Bayronning ayni shon-shuhrat pillapoyalariga chiqqan davrida yozilgan “Kofir” poemasi qayta-qayta nashr etilib, muallifga yanada muvafaqqiyat keltirdi. Shunday yuqori kayfiyat shoirni yana turkiy hikoyalar yozishga undab, “Turk qissalari” (Turkish tales) turkumiga kiruvchi – “Abidoslik kelin” (The Bride of Abydos, 1813), “Qaroqchi” (The Corsair, 1814) va “Lara” (Lara, 1814) dostonlarini birin-ketin e‘lon qildi. Uning bu dostonlari Nizomiyning “Layli va Majnun” va Firdavsiyning “Yusuf va Zulayho” nomli asarlari ta’sirida yozilgan.

Bayronning 1813-1814 yillar oralig‘ida shiddat bilan yozilgan ushbu dostonlari kitobxonlar tomonidan yaxshi kutib olinib, olti oy ichida “Kofir” dostoni yetti marta nashrdan qayta chiqarildi. Bir oy ichida “Abidoslik kelin” poemasi olti ming nusxada sotildi. “Qaroqchi” nomli kitobi esa chop etilgan kunning o‘zidayoq, ko‘z ko‘rib kuloq eshitmagan darajada, o‘n ming nusxada sotilib ketdi. “Lara” dostoni besh kun ichida olti ming nusxada sotildi. Ushbu faktlar nafaqat Bayronning muvafaqqiyatini isbotlaydi, balki o‘sha davrning Sharq olamiga bo‘lgan ehtiromi va qiziqishlarini ham namoyon etadi. Bayron ushbu asarlarini o‘z zamondoshlari kabi uzoq vaqt mulohaza yuritib yozgan emas. Adabiyotshunoslar ta’kidlaganidek, uning dostonlari Sautiniki kabi o‘ta mukammal ham emas. O‘zini umuman professional yozuvchi sanamasligini



Bayron ham tan olgan. Biroq muallifning zamondoshlaridan hech biri, hattoki, Sharqqa sayohati davomida romantik muhit va hissiyotlarni Bayron kabi ziyraklik bilan ilgʻay olmagan. Shoir esa Sharq adabiyotidan oʻqigan va tasavvur qilgan voqea-hodisalariga asoslanib oʻzining qator asarlarini qogʻozga tushirdi.

Bayronga shuhrat keltirgan omillardan biri shuki, u zukkolik bilan oʻz aql-zakovati tomirlarini Sharq bilan bogʻlay oldi. Taomillarga koʻra, asarlariga biroz realistlik ruh berish maqsadida toʻplagan maʼlumot va manbalaridan foydalanib, kirish qismlari va havolalar yozdi. Ammo u Robert Sauti kabi izohlarga koʻp ham berilmay, tasavvurida Sharqni qanday koʻrsa, shunday tasvirlashga qodir edi. Xalq orasida tomoshalarga ehtiyoj yuqori darajaga yetgan pallada Bayron oʻzining “Turk qissalari” dostoni bilan omma eʼtiborini qozondi.

Maʼlumki, ijodkorning katta muvaffaqiyatlarga erishishida uni oʻrab turgan adabiy muhit ham alohida oʻrin tutadi. Bayronning ham turli ijodiy masalalarni oʻrtoqlashadigan, uzundan-uzoq bahs-munozaralar olib boradigan hamfikir zamondoshlari mavjud edi. Biroq uning eng yaqin doʻsti va maslakdoshi Tomas Mur shoirning ayrim ishlaridan aziyat chekdi. Chunki doimiy ravishda ular bitajak asar gʻoyalarini birga muhokama qilishar, bamaslahatlikda yangi ishni boshlashar edilar. 1811 yil sentabr oyida Mur Sharq mavzusini madh etuvchi navbatdagi asarga qoʻl urdi. Toki asarni tugallab, nashr etmaguniga qadar bu haqida sir saqlashni lozim topdi. Ammo Bayron doʻsti Murning sharqona doston ustida ishlayotganidan xabardor boʻlsa-da, unga ilhom bagʻishlovchi soʻzlardan oʻzini tiydi. Sharq mavzusi oʻsha davr sheʼriyatining asosiy mavzusi boʻlib, ikki shoir koʻp marotaba bu toʻgʻrisidagi fikr-mulohazalarini oʻzaro oʻrtoqlashishgan edi. Lekin oʻzi qoʻl urgan mavzuda Bayron ham qalam tebratayotganini eshitgan Mur hayratdan lol qoldi. Bayronning cheksiz olqishlardan sarmastligini koʻrgan Murning hafsalasi pir boʻldi. Ulkan muvaffaqiyatga sazovor boʻlgan Bayronning “Abidoslik kelin” dostoni ham aslida Mur chop etishni niyat qilib yurgan poemasi gʻoyasi bilan deyarli bir xil edi. Bundan adolatsizlik uni qattiq ranjitdi. U oʻz dardlarini toʻkib solish uchun Meri Dalbay (Mary Dalby)ga noma bitdi: **“Lord Byron’s last poem did give me (I am sorry to tell you) a deep wound in a very vital part - my story; and it is singular enough, for he could not know anything about it”**². Yaʼni Bayronning soʻngi poemasi oʻzining asari bilan oʻxshashligidan qalbi ozor chekkani haqida yozadi Mur.

Jamiyatning Sharqqa boʻlgan qiziqishini hisobga olganda, ehtimol, Tomas Murning yangicha ruhdagi poemalari katta bahs-munozaralarga sabab boʻlardi. Zamondosh shoirlar ham unga ergashib, qator sharqona asarlar bitilar edi. Shunday oʻylarni boshidan oʻtkazgan shoir quyidagilarni yozib qoldiradi: **“... I feel rather downhearted about it. Never was anything more unlucky for me than Byron’s invasion of this region, which when I entered it, was as yet untrodden, and whose chief charm consisted in the gloss and novelty of its features; but it will now be over-run with clumsy adventurers, and when I make my appearance, instead of being a leader as I looked to be, I must dwindle into an humble follower - a Byronian. This is disheartening, and I sometimes doubt whether I**

² Letter to Mary Dalby, December 1813, in Letters, ed. Dowden, I, p. 269



shall publish it at all; though at the same time, If I may trust in my own judgement, I think I never wrote so well before”³ (“Men bundan qattiq tushkunlikka tushib qoldim. Hali hech bir zog‘ qadam bosmagan hududga kirib borganimda, unga Bayronning tajovuz qilishi meni esankiratib qo‘ydi. U yerda tengsiz jozibalar mujassamligi, uning o‘ziga xos xususiyatlari menga ayon edi; Biroq endi u joylar beo‘xshov sayyohlarga to‘lib toshmoqda. Bu mavzuga yana nazar tashlaydigan bo‘lsam endi yetakchi emas, balki Bayronga o‘xshab oddiy izdosh bo‘lishimga to‘g‘ri keladi. Bu kishi hafsalasini pir qiladi. Ba‘zan uni chop qilsammikan, deb ikkilanaman. Ammo o‘z his-tuyg‘ularimga ishonadigan bo‘lsam, avval hozirgidek zo‘r yozmas edim, deb o‘ylayman”)⁴.

Bayronning sharqona dostonlari jamiyat e‘tiborini qozongan bir paytda, 1817 yil Tomas Murning “Lolaruh” (Lalla Rookh) poemasi nashrdan chiqib, yevropalik kitobsevarlar qalbidan chuqur joy oldi. Poemadagi voqea-hodisalar sirli olam bo‘lmish sharqiy mamlakatlarda sodir bo‘ladi. Asar qahramoni Avrangzeb va‘dasiga vafo qilib, qizi Lolaruhni Delhidan Kashmirda bo‘lg‘usi kuyovi - Buxoro shohining o‘g‘liga xotinlikka yuboradi. Yo‘l-yo‘lakay qizini himoya qilib ketish uchun Avrangzeb yo‘llagan hamrohlardan biri – yosh shoir Feramors o‘zining turli-tuman ertaklari bilan Lolaruhni zeriktirmaydi. Qiz shoirni sevib qoladi, shu sababli peshonasiga bitilganini ko‘rishga majbur edi. Lekin baqtriyalik shahzoda huzuriga yetib kelganida, baxtdan hushini yo‘qotadi. Chunki shoir Feramors uning bo‘lg‘usi yori, ya‘nikim, shahzoda bo‘lib chiqqandi.

Poema qirollik hofizi Feramorsning ertaklariga bog‘liq ravishda to‘rt qismga bo‘linadi: “Hurosonlik chimmatli payg‘ambar” (The Veiled Prophet of Khorassan), “Jannat va pari” (Paradise and the Peri), “Olovparastlar” (The Fire Worshippers), “Haram yog‘dusi” (The Light of the Haram). Ularning ichida eng sarasi bo‘lgan “Jannat va pari” dostoni fors afsonalari asosida yozilib, Yer yuziga ezgulik nurini sochuvchi farishtalar avlodidan bo‘lgan parilar haqidadir.

“Lolaruh” poemasi Sautining sharqona dostonlaridagi ilmiy an‘analarni davom ettirib, Bayron uslubini umuman rad etadi. Tomas Mur asarda mutlaqo notanish jilvador sahnalar va rang-barang tasvirli epizodlarga murojaat qiladi. Shoir turli kitoblarda o‘qigan Sharq mamlakatlari haqidagi ma‘lumotlarga tayanib ish ko‘radi. Poemalari g‘oyasini esa ko‘plab kitobxonlarga noma‘lum bo‘lgan adabiyotlardan jamlaydi.

XVIII asrda inglizlarning Sharqni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi tobora ortib bordi. Orientalizm – madaniy hodisa sifatida ahamiyat kasb etib, arxitektura, bog‘dorchilik, san‘at va adabiyotga ham beqiyos ta‘sir ko‘rsatdi. Adabiyotda ijodkorlar uchun yangicha muhit va kayfiyat yaratib, sharqona xususiyatlarni o‘ziga jo qilgan qator asarlar dunyoga keldi.

Bu yo‘sindagi Sharqqa yaqinlashuv neoklassizmdan romantizmga o‘tishning yaqqol ifodasi edi. Asrning birinchi yarmida yozuvchi va shoirlar sharqona talqin orqali o‘zlarining madaniyatida uchraydigan be‘maniliklarni hajviyomuz usulda qalamga olishdi. Sahna asarlarida esa odamzotning gunohlari uchun jazo

³ Letter to Mary Godfrey, July or August 1813, *ibid.*, p. 275.

⁴ Ingliz tilidan tarjima bizniki. – G.M.



muqarrarligiga urg‘u berilib, o‘sha zamonning chirkin ishlariga e‘tibor qaratildi. Biroq XVIII asrning keyingi yarmida ijodkorlarning diqqat markazini, asosan, Sharq ekzotikasi va g‘ayrioddiylik egalladi. Shunday qilib, she‘riyatda avvalgi shoirlar qo‘llamagan sharqona ohangni berish uchun yangi usullar, bezaklar va qiyofalar kerak edi. Sahnalarda fantomima va melodramaga qiziqish ortib, zeb-ziynatlarga boy liboslar va hashamatli manzaralarni tasvirlovchi dramalar paydo bo‘ldi.

She‘riyatga ishtiyoqmandlar XVIII asr ingliz adabiyotiga murojaat qilishganlarida, avvalambor, undagi sharqona belgilarni izlashga kirishishlari tabiiydir. O‘sha zamonning deyarli, barcha shoirlari o‘z ijodlarida, albatta, oriental mavzularga bir bora bo‘lsada nazar solib o‘tadi. Ularning ayrimlari o‘ta eklektizmga berilib, o‘z urinishlari mobaynida turli qarash va nazariyalarni bir-biri bilan qorishtirib ham yuboradi. Manbalarga ko‘ra, asosan, Bayron, Sauti va Murlarning sharqona asarlari kitobxonlar tomonidan juda yaxshi qabul qilingan bo‘lsa-da, ammo ularning ijodi faqat bu mavzudagi poemalar bilan cheklanib qolmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bernhardt-Kabisch E. Robert Southey. – Boston: G.K. Hall, 1977. – 198 p.
2. Bloom H., Trilling L. Romantic Poetry and Prose. – Oxford: Oxford University Press, 1973. – 864 p.
3. Bodkin M. Archetypal Patterns in Poetry. Psychological Studies in Imagination. – England: Oxford University Press, 1965. – 340 p.
4. Cawley R.R. The Voyagers and Elizabethan Drama. – N.Y.: Periodicals Service Company, 1938. – 452 p.
5. Mamarasulova G.A. Romantizm davri poemasida sharqona motivlar. Sharq yulduzi. – Toshkent, 2018 yil 10-son. – B. 156-161.
6. Mamarasulova G.A. A Description of the Feelings and Thoughts of Lakists in Their Poems // Ilmiy munozara: Muammo, yechim va yutuq: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2016. – B. 219-221